



“WHOEVER BELIEVES IN ALLAH AND THE LAST DAY” COMMENTARY AND ANALYSIS OF THE HADITH

Utkir Mahmudov

Deputy Head for Academic Affairs, Khoja Bukhari Secondary

Special Islamic Educational Institution

2nd-year Master's Student, Oriental University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Islamic teachings, speech culture, faith, neighborliness, hospitality, hadith, ethics, social harmony.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: The article analyzes the culture of speech, neighborly relations, and the virtue of hospitality in Islamic teachings as essential components of faith. Speech etiquette is presented as a criterion reflecting the spiritual maturity and level of belief of a Muslim individual. In addition, based on the sayings of Prophet Muhammad (peace be upon him) regarding proper use of language, avoiding harm to others, and honoring guests, the ideas of social harmony and moral unity are examined. The article reveals the role and contemporary significance of these virtues in strengthening the moral environment of society.

“KIMNI ALLOH VA OXIRAT KUNIGA IYMONI BO‘LSA” HADISI SHARH VA TAHLILI

O‘tkir Mahmudov

Xoja Buxoriy o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi

O‘quv ishlari bo‘yicha mudir o‘rinbosari

Oriental universiteti 2-bosqich magistranti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Islom ta’limoti, nutq madaniyati, imon, qo‘shnichilik, mehmondo‘stlik, hadis, axloq, ijtimoiy totuvlik.

Annotatsiya: Maqolada islom ta’limotida insonning nutq madaniyati, qo‘shnichilik aloqalari va mehmondo‘stlik fazilatlarini imonning muhim tarkibiy qismi sifatida tahlil qilinadi. So‘z odobi musulmon shaxsning ma’naviy yetukligi va e’tiqod

darajasini ifodalovchi mezon sifatida yoritiladi. Shuningdek, Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning hadislarida tilni to'g'ri ishlatish, boshqalarga ozor yetkazmaslik hamda mehmonni e'zozlashga oid o'gitlar asosida ijtimoiy totuvlik va ma'naviy uyg'unlik g'oyalari tahlil qilinadi. Maqola mazkur fazilatlarining jamiyat axloqiy muhitini mustahkamlashdagi o'рни va zamonaviy ahamiyatini ochib beradi.

«ТОТ, КТО ВЕРИТ В АЛЛАХА И СУДНЫЙ ДЕНЬ» ТОЛКОВАНИЕ И АНАЛИЗ ХАДИСА

Уткир Махмудов

*Заместитель заведующего по учебной части Среднего специального исламского учебного заведения имени Ходжа Бухарий
Магистрант 2-го курса Университета Востоковедения
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: исламское учение, культура речи, вера, соседские отношения, гостеприимство, хадис, нравственность, социальное согласие.

Аннотация: В статье анализируются культура речи, соседские отношения и гостеприимство в исламском учении как важные составляющие веры. Этикет речи раскрывается как критерий, отражающий духовную зрелость и уровень убеждённости мусульманина. Кроме того, на основе хадисов Пророка Мухаммада (мир ему и благословение), содержащих наставления о правильном пользовании языком, недопущении причинения вреда другим и почитании гостя, рассматриваются идеи социального согласия и духовной гармонии. Статья раскрывает роль и современную актуальность этих добродетелей в укреплении нравственной среды общества.

Kirish. Islom ta'limotida insonning so'z, xulq va muomala madaniyati iymonning muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida baholanadi. Dinning asosiy maqsadlaridan biri – jamiyatda o'zaro hurmat, saxovat va insoniylik tamoyillarini mustahkamlashdir. Shu sababli, musulmon shaxsning iymoni faqat e'tiqod bilan emas, balki uning so'zlari, amallari va odob-axloqi orqali ham namoyon bo'ladi.

Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning o'gitlarida nutq madaniyati, qo'shnichilik aloqalari va mehmondo'stlik fazilatlarini alohida o'rin tutadi. Bu fazilatlar insonning ichki e'tiqodini amalda

ko'rsatadigan mezon sifatida talqin etilgan. Tilni to'g'ri ishlatish, ya'ni so'z orqali ezgulik tarqatish yoki keraksiz gaplardan tiyilish, iymonning komilligiga dalil bo'ladi.

Qo'shnilik munosabatlariga e'tibor berish, boshqalarga ozor yetkazmaslik va yordam qo'lini cho'zish ham musulmonlik odobining ajralmas qismidir. Islom manbalarida bu fazilatlar ijtimoiy totuvlikning poydevori sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, mehmonni e'zozlash – payg'ambarlar merosining bir ko'rinishi bo'lib, insonning saxiylik, ehtirom va mehr-oqibatga sadoqatini ifodalaydi.

Mazkur fazilatlarining barchasi nafaqat diniy jihatdan, balki ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy poklikni ta'minlash nuqtai nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, so'z, qo'shnichilik va mehmondo'stlik madaniyati musulmon jamiyatining axloqiy qiyofasini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Tadqiqot usullari. Ushbu tadqiqotning metodologik asosini islom ta'limoti, hadis ilmi va axloqiy tamoyillarni sharhlashga doir klassik manbalarga tayanilgan ilmiy tahlil usullari tashkil etadi. Tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi:

1. Matnshunoslik

Hadis matni, uning rivoyat zanjiri (sanad) va mazmuni (matn) ishonchli manbalar – Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyatlariga tayangan holda tahlil qilindi. Sharhlovchi olimlarning izohlari — Hofiz Ibn Hajar, Ibn Hajar Haytamiy, Imom Navaviy kabi muhaddislarning fikrlari asosida solishtirildi.

2. Mazmuniy-tahliliy yondashuv

Hadisda bayon qilingan uch asosiy fazilat — nutq madaniyati, qo'shnichilik, mehmondo'stlik — iymonning tarkibiy bo'laklari sifatida talqin qilinib, ularning diniy, axloqiy va ijtimoiy ahamiyati keng yoritildi.

3. Qiyosiy tahlil

Islomning asosiy manbalari — Qur'on oyatlari, hadislar va sahoba rivoyatlari — o'zaro taqqoslanib, ularda nutqni to'g'ri ishlatish, qo'shnilar bilan yaxshi muomala qilish va mehmonni hurmatlashga oid hukmlar solishtirildi.

4. Tarixiy yondashuv

Hadisning aytilish sababi ("sabab ul-vurud") Jome' al-kabir va boshqa manbalardagi tarixiy rivoyatlar asosida o'rganilib, hadisning mazmuni sahobalar hayoti bilan bog'lab sharhlanadi.

5. Axloqiy konseptual tahlil

Til odobi, qo'shnichilik va mehmondo'stlik fazilatlarining musulmon shaxs tarbiyasidagi o'rni, ularning ijtimoiy totuvlik va jamiyat barqarorligiga ta'siri axloqiy-ruhiy mezonlar asosida tahlil qilindi.

6. Ilmiy manbalarni tahlil qilish

Tadqiqot davomida hadis sharhlari, fiqhiy manbalar va axloqiy adabiyotlar qiyosiy o'rganildi. "Fath al-Bari", "Sharh Muslim", "Fath al-Mubin" kabi asosiy kitoblar ilmiy asos sifatida qo'llanildi.

Natijalar. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi. Albatta Rasululloh sallollohu alayhi vasallam aytdilar: "Kimni Allohga va oxirat kuniga iymoni bo'lsa, yaxshi gap gapirsin yoki jim tursin va kimni Allohga va oxirat kuniga iymoni bo'lsa, qo'shnisiga yaxshilik qilsin va kimni Allohga va oxirat kuniga iymoni bo'lsa, mehmonini hurmat qilsin", dedilar". Imom Buxoriy va Muslim rivoyati

Mazkur hadis borasida ulamolarning fikrlari:

Ulamolarning ba'zilari, barcha yaxshiliklar mashu hadisdan tarqaydi, deb e'tirof qilgan bo'lsalar, yana ba'zilari mazkur hadis islomning yarmidir, chunki hukmlar Haq taologa yoki maxluqotlarga tegishli bo'ladi. Ushbu hadis esa, ikkinchisini ya'ni, maxluqotlarga tegishli bo'lgan hukmlarni yoritib bergan [1].

Hofiz ibn Hajar rohmatallohi alayhi: "Bu hadis jamlovchi kalimalardandir. Chunki so'zlarning barchasi yaxshi bo'ladi yoki yomon. Yaxshi so'zlarga gapirish lozim bo'lgan yoki mustahab bo'lganlari kirsalar, bundan boshqa o'rinlarda gapirish yomon sanalari yoki yomonlikka yetaklovchi so'z bo'ladi", deganlar [2].

Ibn Hajar Haytamiy: "Mazkur hadis buyuk qoidalarni o'z ichiga qamrab olgan. Chunki, mazkur hadisda insonning boshqa a'zolariga qaraganda juda ko'p harakat qiladigan tilga tegishli hukmlar bayon qilingan. Shuning uchun bu hadisni islomning uchdan biri desak to'g'ri bo'ladi", deganlar. [3]

Mazkur hadisning aytilishining sababi: Jomeul kabir kitobida Muhammad ibn Abdulloh ibn Salom aytadi: "Kunlarning birida Rasululloh sallollohu alayhi vasallamning huzurlariga kelib, "Menga qo'shnim ozor berayapdi" dedim. Shunda, Rasululloh sallollohu alayhi vasallam "Sabr qil" dedilar. So'ngra ikkinchi marta kelganimda ham "Sabr qil" dedilar. Uchinchi bor kelganimda: "Ko'ch-ko'roningni yig'ishtirda yo'lga olib chiq, kim senga yo'liqsa, "Qo'shnim menga ozor bermoqda" deb aytgin, dedilar. Shu sabab o'sha qo'shning insonlarning malomatiga haqli bo'ladi" deb, so'ngra "Kimni Allohga va oxirat kuniga iymoni bo'lsa, yaxshi gap gapirsin yoki jim tursin va kimni Allohga va oxirat kuniga iymoni bo'lsa, qo'shnisiga yaxshilik qilsin" dedilar". [4]

Hadisning sharhi:

"Kimni Allohga va oxirat kuniga iymoni bo'lsa", degan jumladagi "iymon"dan maqsad, "mukammal iymon" nazarda tutilgan. Alloh va oxirat kuniga xoslanganining hikmati shuki, o'zini yaratgan Zotga va erta qiyomatda amaliga yarasha jazo berilishiga iymon keltirgan kishi qo'yidagi ishlarni qilsin: "Yaxshi gap gapirsin yoki jim tursin". Imom navaviy rohmatallohi alayhi aytdilar: "Agar bir kishi gapirishni xohlasa bas gapiradigan gapi haqiqatda yaxshi gap bo'lsa va savobga

loyiq bo'lsa gapirsin. Agar gapirmoqchi bo'lgan gapi haromga yoki makruhga eltadigan bo'lsa, tiyilsin". Chunki, Alloh taolo Qur'oni karimda: "U (inson) biror so'zni talaffuz qilmas, magar (talaffuz qilsa), uning oldida hoziru nozir bo'lgan bir kuzatuvchi (farishta u so'zni yozib olur)", degan [5].

Ulug' imom Abu Muhammad ibn abu Zayd molikiy rahmatullohi alayhi aytadilarki: "Barcha yaxshi odoblar to'rtta hadisdan tarmoqlanadi.

1. "Kimni Alloh va oxirat kuniga iymoni bo'lsa, yaxshi gap gapirsin yoki jim bo'lsin" [6].

2. "Bekorchi narsalarni tark qilish, kishi islomining go'zalligidandir" [7].

3. "G'azablanma" [8].

4. "Sizlardan birortangiz o'zi yaxshi ko'rgan narsani birodariga ham yaxshi ko'rmagunigacha mo'min bo'la olmaydi" [9].

Luqmoni hakim o'z o'g'liga shunday vasiyat qilgan: "Agar gapirish kumush bo'lsa, sukut tillodir". Bu gapning ma'nosi shuki, Ibn Muborak aytadilar: "Agar gap Alloh taoloning toati borasida bo'lsa, kumushdir, Alloh taologa gunoh qilishdan sukut qilmoq esa tillodir".

Zun Nun al-Misriy rahmatullohi alayhi aytadilar: "Insonlarning eng yaxshisi, o'z tiliga egalik qila olganidir".

Hadisning davomida: "Kimni Alloh va oxirat kuniga iymoni bo'lsa, mehmonini hurmat qilsin", deyilgan. Qo'shniga yaxshilik qilish, unga ozor berishdan tiyilish, mumin kishi islomining to'g'riligi va iymonining komilligidan hisoblanadi. Bu borada Alloh taolo O'z kalomida shunday degan: "Allohga ibodat qilinglar va Unga hech narsani shirk keltirmanglar. Ota-onaga, qarindoshga, yetimlarga, miskinlarga, yaqin qo'shniga, yon qo'shniga, yondagi sohibga, yo'qsil yo'lchiga va qo'lingizda mulk bo'lganlarga yaxshilik qilinglar. Albatta, Alloh dimog'dor va maqtanchoq kimsani suymas" [10].

Imom Buxoriydan rivoyat qilingan hadisda Payg'ambarimiz sallolohu alayhi vasallam shunday marhamat qilganlar: "Allohga qasamki mo'min bo'la olmaydi, Allohga qasamki mo'min bo'la olmaydi, Allohga qasamki mo'min bo'la olmaydi", shunda Rasulullohdan so'raldi: "Ey Allohning Rasuli kim u?", U Zot marhamat qildilar: "Qo'shnisi uning ozorlaridan, yomonliklaridan va aziyatlaridan omonda bo'lmagan kishidir".

Hadisning davomida: "Kimni Alloh va oxirat kuniga iymoni bo'lsa, mehmonini hurmat qilsin", deyilgan. Chunki, bu xislat payg'ambarlarning va solih kishilarning xulqlari, odatlaridan va islomning go'zal odoblaridandir. Ibrohim alayhissalom "Mehmondo'stlarning otasi" deb, kunyalangan. Chunki, bu kishi bir yoki ikki mil (1848 m (o'rtacha 4000 qadam, piyoda o'rtacha 30 daqiqali yo'l) mehmon talabida yurar edilar.

Imom Navaviy rahmatullohi alayhi aytadilar: "Haqiqatda musulmonlar mehmondorchilik borasida bu ish islomda ta'kidlangan amallardan ekanligiga ijmo qilganlar". Imom Shofeyy, imom

Molik va imom Abu Hanifalar va jumhur ulamolar – mehmondo‘stlik sunnatdir degan bo‘lsalar, imom Lays va imom Ahmadlar bir kecha va kunduz mehmondo‘stlik vojibdur, deganlar [11].

Hadisdan olinadigan foydalar:

1. Qo‘shnini ikrom qilish, aziyat berishdan tiyilish va yaxshiliklarni sarf qilish vojib amallardan ekanligi;
2. Mehmonni hurmat qilish ham ulug‘ ishlardan ekanligi;
3. Qo‘shni va mehmonni rioyasini qilish, islomga amal qilish bo‘lib, bu esa islom dinining buyuk din ekanligiga dalolat qilishi;
4. Til ofatlaridan saqlanish lozimligi;
5. Hadisi sharifda ulug‘ xulqlar bilan xulqlanishga qiziqtirish borligi;
6. Hadisi sharifda bayon qilingan xislatlar – iymonning bo‘laklaridan ekanligi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, islom ta’limotida nutq odobi, qo‘shnichilik munosabatlari va mehmondo‘stlik fazilatlarini iymonning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning mazkur hadisda qayd etgan uch asosiy ko‘rsatmasi — “yaxshi so‘z gapirish”, “qo‘shniga yaxshilik qilish” va “mehmonni e‘zozlash” — musulmon shaxsning e‘tiqodi, ma’naviy pokligi va ijtimoiy mas’uliyatini ifodalovchi mezon sifatida namoyon bo‘ladi.

Hadis sharhlari shuni ta’kidlaydiki, til insonning eng ko‘p harakat qiluvchi a‘zosi bo‘lib, uning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ishlatilishi shaxsning axloqiy qiyofasini belgilaydi. Shu bois so‘zlarni ehtiyotkorlik bilan tanlash, keraksiz yoki zararli gaplardan tiyilish iymon komilligiga yo‘l ochadi. Qo‘shni haq-huquqlariga rioya qilish, ozor bermaslik va yordam qo‘lini cho‘zish esa jamiyatdagi totuvlik va barqarorlikning muhim omillaridan biridir. Mehmonni hurmat qilish va unga ehtirom ko‘rsatish esa payg‘ambarlar merosining amaliy ko‘rinishi bo‘lib, insonning saxovat va mehr-oqibatga sodiqligini aks ettiradi.

Tadqiqot shuni isbotlaydiki, hadisda keltirilgan fazilatlar nafaqat diniy majburiyat, balki ijtimoiy-axloqiy me‘yor sifatida har bir davr uchun dolzarbdur. Bu tamoyillar jamiyatdagi ma’naviy muhitni mustahkamlaydi, insonlar o‘rtasida mehr, ishonch va hamjihatlikni kuchaytiradi. Demak, mazkur hadisning mazmuni hozirgi zamon ijtimoiy hayotida ham o‘ta muhim bo‘lib, uning talqinlari insoniylik va axloqiy yuksalish sari yo‘naltiruvchi universal qo‘llanma vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Al-Javohir Lu‘luya Sharh Arba‘in an-Navaviy (149)
2. Fathul Boriy (10/461, h. 6019)
3. Fathul Mubiyin (137)
4. Al-Bayon va Ta‘rif (3/235)

5. Qof surasi, 18-oyat
6. Sharh Muslim lin-Navaviy (2/17, h. 47)
7. Imom Buxoriy (4/94, h. 6018)
8. Imom Termiziy (2318)
9. Imom Buxoriy (4/112, h. 6116)
10. Sharh Muslim lin-Navaviy (12/27, h. 1726)